

**EKOLOGIK-IQTISODIY TIZIMLARDA MINTAQAVIY
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING
METODOLOGIK TAMOIYILLARI**

Qarshi davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

Siradjev Ilxom Toxirovich

Zamonaviy globallashtirish jarayonlarida iqtisodiy o'sishning an'anaviy modeli tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi, ekologik muvozanatning buzilishi va iqlim o'zgarishlarining kuchayishi bilan tavsiflanmoqda. Modelning markaziy qismida joylashgan Agile–Green–Digital komponentlari mintaqaviy boshqaruvning zamonaviy paradigmasini ifodalaydi. Agile yondashuv boshqaruv jarayonida moslashuvchanlik, tezkor qaror qabul qilish va noaniqliklarni samarali boshqarishni ta'minlash, Green komponent iqtisodiy faoliyatni ekologik cheklovlar bilan uyg'unlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Digital komponent esa raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili orqali boshqaruv jarayonlarini optimallashtiradi hamda monitoring va nazorat tizimini kuchaytiradi. Ushbu uch yondashuvning o'zaro kesishuv nuqtasida integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi shakllanib, u zamonaviy iqtisodiy tizimlar uchun eng samarali boshqaruv modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Modelning o'ng qismida aks ettirilgan boshqaruv mexanizmlari — davlat-xususiy sheriklik (PPP), klasterlash, institutsional islohotlar va ekologik siyosat — integratsiyalashgan yondashuvni amaliyotga joriy etish vositalari sifatida xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar orqali mintaqaviy boshqaruv tizimida resurslar samarali taqsimlanadi, innovatsion rivojlanish rag'batlantiriladi va ekologik muvozanat ta'minlanadi. Natijada modelning chiqish qismida ko'rsatilganidek, boshqaruv samaradorligi oshadi, iqtisodiy o'sish





barqarorlashadi, ekologik xavfsizlik mustahkamlanadi va ijtimoiy farovonlik darajasi yuksaladi. Shu bilan birga, model doirasida GMEI, KPI va ekonometrik baholash usullaridan foydalanish boshqaruv natijalarini miqdoriy jihatdan tahlil qilish va prognozlash imkonini beradi, bu esa uning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqotda atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy va metodologik asoslari takomillashtirildi hamda boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqish, mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning Agile–Green–Digital integratsiyalashgan konseptual modeli ishlab chiqilib, unda moslashuvchan boshqaruv, ekologik barqarorlik va raqamli transformatsiya komponentlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan yagona tizim sifatida asoslab berildi. Mazkur model mintaqaviy boshqaruvda resurslardan samarali foydalanish, tezkor qaror qabul qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkonini beruvchi kompleks mexanizm sifatida taklif etamiz. Shuningdek, yashil iqtisodiyot sharoitida boshqaruv samaradorligini kompleks baholashga xizmat qiluvchi “Green Management Efficiency Index (GMEI)” ishlab chiqilib, unda iqtisodiy, ekologik va raqamli ko‘rsatkichlar integratsiyalashgan holda tizimlashtirildi. Ushbu indeks orqali mintaqaviy boshqaruv samaradorligini miqdoriy baholash, monitoring qilish va solishtirma tahlil o‘tkazish imkoniyati yaratildi. Mintaqaviy boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash uchun ekonometrik modellar (ko‘p omilli regressiya, trend va ssenariy modellar) qo‘llanilib, Agile–Green–Digital yondashuv asosida boshqaruv natijalarining prognozlash mexanizmi ishlab chiqildi. Natijada boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish va ularning samaradorligini oldindan baholash imkoniyati kengaytirildi. Bundan tashqari, mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishda davlat-xususiy sheriklik (PPP), klasterlash va institutsional islohotlarning integratsiyalashgan mexanizmi taklif etilib, ularning yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan uyg‘unlashuvi asoslab berildi. Ushbu mexanizmlar orqali hududlarda investitsion faollikni oshirish,



innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari kengaytirildi. Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida mintaqaviy boshqaruvni takomillashtirish maqsadida sun'iy intellekt, Big Data va raqamli monitoring tizimlariga asoslangan boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Bu yondashuv orqali boshqaruv jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va aniqligi oshirilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Natijada mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning 2026–2035 yillarga mo'ljallangan ssenariyli rivojlanish modeli ishlab chiqilib, unda iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks baholandi. Ushbu model asosida hududiy rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari belgilab berildi.

Xulosa qiladigan bo'lsak atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy va metodologik asoslari chuqur o'rganildi hamda mavjud ilmiy yondashuvlar tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalari zamonaviy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy elementi ekanligi asoslab berildi va ularning mintaqaviy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida xalqaro, Rossiya va O'zbekiston ilmiy maktablari yondashuvlari taqqoslab o'rganilib, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Xususan, xalqaro tajribada global integratsiya va barqaror rivojlanish maqsadlari ustuvor bo'lsa, Rossiya ilmiy maktabida institutsional va hududiy boshqaruv mexanizmlariga e'tibor qaratilishi, O'zbekiston olimlari esa iqtisodiy modernizatsiya va raqamli transformatsiyani ustuvor yo'nalish sifatida ilgari surishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Dissertatsiyada ilk bor mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning Agile–Green–Digital integratsiyalashgan konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model asosida boshqaruv jarayonida moslashuvchanlik, ekologik barqarorlik va raqamli texnologiyalar uyg'unligini ta'minlash orqali samaradorlikni oshirish mexanizmi taklif etildi. Shu bilan birga, boshqaruv samaradorligini baholash uchun Green Management Efficiency Index (GMEI)



ishlab chiqilib, u orqali iqtisodiy, ekologik va raqamli ko'rsatkichlarni kompleks baholash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotda mintaqaviy boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda ekonometrik modellar (regressiya, trend va ssenariyli prognozlash usullari) qo'llanilib, boshqaruv natijalarini ilmiy asosda baholash va prognozlash mexanizmlari ishlab chiqildi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik, klasterlash va institutsional islohotlar orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning amaliy mexanizmlari asoslab berildi.

Umuman olganda, dissertatsiya natijalari mintaqaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish hamda iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish orqali hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. mintaqaviy darajada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, resurslarning cheklanganligi va atrof-muhit degradatsiyasi boshqaruv tizimlarida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu bois, ekologik omillarni mintaqaviy boshqaruv tizimiga integratsiyalash barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda ekologik boshqaruv ko'proq alohida yo'nalish sifatida o'rganilgan bo'lib, uning institutsional va raqamli komponentlari yetarlicha integratsiyalashmagan. Shu sababli, mintaqaviy boshqaruv samaradorligini oshirish uchun davlat, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mintaqaviy ekologik boshqaruv samaradorligini oshirishning institutsional va raqamli mexanizmlarini integratsiyalashgan holda asoslab berishdan iborat.



Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida ekologik omillar mintaqaviy boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. An'anaviy boshqaruv modellari asosan iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan bo'lsa, hozirgi bosqichda ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi mintaqalarda ekologik yuklamaning ortishiga olib kelib, boshqaruv qarorlarida ekologik omillarni inobatga olish zaruratini keskin oshirmoqda.

Mintaqaviy boshqaruvda ekologik omillarni hisobga olish, avvalo, tabiiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini shakllantirish bilan bog'liqdir. Yer, suv, energiya va biologik resurslar mintaqaning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu sababli, ularni boshqarish jarayonida resurs tejamkorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish kabi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik muvozanatni saqlash imkonini beradi.

Ekologik omillar mintaqaviy boshqaruv samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi indikatorlar sifatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, atmosfera ifloslanishi, suv resurslarining holati, chiqindilar hajmi va yer degradatsiyasi darajasi kabi ko'rsatkichlar hududiy rivojlanishning sifatini belgilaydi. Shu jihatdan, boshqaruv tizimida ekologik indikatorlarni qo'llash orqali hududiy rivojlanishni kompleks baholash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayonda ekologik monitoring tizimlari va raqamli texnologiyalarning roli alohida ahamiyatga ega.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda mintaqaviy boshqaruvda ekologik omillarning o'rni asosan barqaror rivojlanish, ekologik boshqaruv va institutsional integratsiya nuqtai nazaridan o'rganiladi. Masalan, Frank Biermann tomonidan ilgari surilgan "Earth System Governance" konsepsiyasi global ekologik muammolarni hal etishda ko'p darajali boshqaruv (global–milliy–mintaqaviy) tizimining zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuvda ekologik omillar nafaqat



tabiiy resurslar bilan bog'liq masala, balki siyosiy va institutsional boshqaruvning markaziy elementi sifatida qaraladi.

Shuningdek, Doris Fuchs ekologik boshqaruvni ko'p subyektli (multi-actor governance) tizim sifatida talqin qilib, davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ta'sir ekologik samaradorlikni belgilovchi asosiy omil ekanligini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlarida ayniqsa ekologik siyosat va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanat muhim ilmiy muammo sifatida ilgari suriladi.

Zamonaviy empirik tadqiqotlarda esa ekologik boshqaruvning mintaqaviy rivojlanishga ta'siri ekonometrik modellar asosida tahlil qilinmoqda. Xususan, Zhang va boshqalar (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda davlatning ekologik boshqaruvi (GEG) va mintaqaviy "yashil rivojlanish" o'rtasida nolinear (inverted U-shape) bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Unga ko'ra, ekologik siyosat dastlab iqtisodiy xarajatlarni oshiradi, ammo uzoq muddatda innovatsiyalarni rag'batlantirib, mintaqaviy samaradorlikni oshiradi.

OECD tadqiqotlarida esa ekologik omillarni boshqarish institutsional integratsiya va siyosiy muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, samarali mintaqaviy boshqaruv uchun ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlar yagona tizimda uyg'unlashtirilishi lozim

Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlarda ekologik boshqaruv muammolari bo'yicha tadqiqotlar ekologik omillarni boshqarishda institutsional zaiflik, iqtisodiy bosim va resurslardan haddan tashqari foydalanish asosiy to'siqlar ekanligini ko'rsatadi. Shu bois zamonaviy ilmiy yondashuvlar ekologik boshqaruvni integratsiyalashgan va ko'p darajali tizim sifatida rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Mintaqaviy boshqaruvda ekologik omillarni o'rganish metodologiyasi zamonaviy iqtisodiy sharoitda kompleks va integratsiyalashgan yondashuvga asoslanadi. Ushbu metodologiya iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda barqaror rivojlanish tamoyillariga tayangan holda shakllantiriladi. Bunda ekologik omillar nafaqat atrof-muhit



holatini aks ettiruvchi indikatorlar sifatida, balki mintaqaviy boshqaruv samaradorligini belgilovchi muhim strategik omil sifatida talqin qilinadi.

Metodologiyaning birinchi bosqichi mintaqaning ekologik holatini diagnostika qilish va baholashdan iborat bo'lib, bunda atmosfera ifloslanishi, suv resurslari sifati, chiqindilar hajmi va yer degradatsiyasi kabi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va ekologik yuklama aniqlanib, hududiy muammolar tizimli ravishda identifikatsiya qilinadi. Ushbu bosqich mintaqaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich axborot bazasini shakllantiradi.

Keyingi bosqichda ekologik omillarni baholash uchun indikatorlar tizimi ishlab chiqiladi va ularning integratsiyalashgan ko'rinishi shakllantiriladi. Bunda atmosfera ifloslanishi, suv sifati, chiqindilar darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligi kabi ko'rsatkichlar asosiy mezonlar sifatida tanlanadi. Ushbu indikatorlar asosida ekologik samaradorlikni baholovchi kompleks indekslar ishlab chiqilib, u orqali mintaqaning ekologik holatini miqdoriy jihatdan baholash imkoniyati yaratiladi.

Barbier yashil iqtisodiyot konsepsiyasini iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiruvchi strategik model sifatida asoslaydi. U ekologik siyosatni rivojlanayotgan mamlakatlarda resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy farovonlikni oshirish vositasi sifatida ko'rsatadi. **Bowen Hepburnlar** "green growth" konsepsiyasini iqtisodiy o'sishning ekologik cheklovlar bilan uyg'unlashgan modeli sifatida tahlil qiladi va davlat siyosatining bu jarayondagi rolini asoslaydi. Costanza ekotizim xizmatlarining iqtisodiy qiymatini baholab, ularning global iqtisodiyotdagi ahamiyatini asoslaydi. Bu yondashuv ekologik omillarni boshqaruvga integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi. Daly barqaror rivojlanish nazariyasini ishlab chiqib, iqtisodiy o'sishning ekologik chegaralarini belgilaydi va "steady-state economy" konsepsiyasini ilgari suradi. Dinda ekologik Kuznets egri chizig'i nazariyasini tahlil qilib, iqtisodiy rivojlanish va ekologik ifloslanish o'rtasidagi bog'liqlikni empirik asosda tushuntiradi. Elkington "Triple Bottom Line" konsepsiyasini ishlab chiqib,



iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarni birgalikda baholash zarurligini asoslaydi. Jacobs yashil o'sish nazariyasini iqtisodiy siyosat bilan bog'lab, davlatning roli va institutsional mexanizmlarni asoslaydi. Stern¹ iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlarini baholab, ekologik siyosatni global ustuvor yo'nalish sifatida asoslaydi. Stiglitz iqtisodiy tengsizlik va ekologik muammolar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, davlat siyosatining rolini ko'rsatadi.

Mintaqaviy boshqaruvda ekologik omillarni inobatga olish institutsional mexanizmlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Ekologik siyosatni amalga oshirishda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhim o'rin tutadi. Davlat-xususiy sheriklik (PPP), ekologik standartlar, kvotalar va rag'batlantiruvchi mexanizmlar orqali ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, ekologik mas'uliyatni oshirish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy etish boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi (1.2.1-rasm).



**Rasm 1.4. Mintaqaviy ekologik boshqaruvda institutsional hamkorlik
va raqamli texnologiyalar integratsiyasi modeli**

Rasm mintaqaviy ekologik boshqaruv tizimining institutsional va texnologik jihatlarini integratsiyalashgan holda aks ettiradi.

¹ Stern, N. (2007). *The economics of climate change: The Stern review*. Cambridge University Press.



Unda ekologik boshqaruv jarayoni davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida shakllanishi ko'rsatilgan. Rasm umumiy konsepsiyasi ekologik boshqaruvni ko'p subyektli tizim sifatida talqin qilib, barqaror rivojlanishga erishishda turli institutlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi.

Rasm markazida joylashgan Davlat-xususiy sheriklik (PPP) elementi ekologik boshqaruv tizimining asosiy yadrosi hisoblanadi. Ushbu element davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni ifodalab, ekologik muammolarni hal etishda resurslar, texnologiyalar va boshqaruv imkoniyatlarini birlashtirish zarurligini ko'rsatadi. PPP mexanizmi orqali investitsion faollik oshadi, innovatsiyalar joriy etiladi va ekologik boshqaruv samaradorligi ta'minlanadi.

Rasmda davlat boshqaruvi organlari alohida blok sifatida tasvirlangan bo'lib, ular ekologik siyosatni shakllantirish, normativ-huquqiy bazani yaratish va nazorat funksiyalarini bajaradi. Mahalliy hokimiyatlar esa ushbu siyosatni hududiy darajada amalga oshiruvchi asosiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Xususiy sektor esa investitsiya, innovatsiya va ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik talablarni joriy etish orqali tizimda faol ishtirok etadi. Ushbu uch tomonlama hamkorlik ekologik boshqaruvning institutsional asosini tashkil etadi.

Rasmda ekologik boshqaruv instrumentlari sifatida ekologik standartlar, kvotalar va rag'batlantiruvchi mexanizmlar aks ettirilgan. Ekologik standartlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini ekologik talablarga moslashtiradi, kvotalar esa tabiiy resurslardan foydalanish va chiqindilarni cheklash imkonini beradi. Rag'batlantiruvchi mexanizmlar, jumladan subsidiya va soliq imtiyozlari orqali esa yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanadi.

Xulosa va takliflar: zamonaviy globallashtirish sharoitida an'anaviy iqtisodiy o'sish modeli tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi, ekologik



muvozanatning buzilishi va iqlim o'zgarishlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, XXI asrning ikkinchi choragida iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatdan yangi paradigmasi sifatida **yashil iqtisodiyot** va **barqaror rivojlanish** konsepsiyalari ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda 2026 yil "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi ushbu yo'nalishning milliy miqyosdagi strategik ustuvorligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Bobylev, S. N. (2017). *Sustainable development and green economy in Russia*. Moscow: Moscow State University.
2. Jackson, T. (2017). *Prosperity without growth: Foundations for the economy of tomorrow* (2nd ed.). Routledge.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026). "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili"ga oid davlat dasturi. Toshkent.
4. Sachs, J. D. (2015). *The age of sustainable development*. Columbia University Press.
5. Zakharov, V. M. (2015). *Ecological policy and sustainable development*.
6. *Beyond growth: The economics of sustainable development*.

